

SOLIQ VA BOJXONA IMTIYOZLARI BERILISHINING IQTISODIY AHAMIYATI

D. Bayzakova

Jizzax politexnika instituti Iqtisodiyot va menejment kafedrasi o'qituvchisi

R. Akbaraliyeva

Kibersport fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq va bojxona imtiyozlarining iqtisodiyotga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri tahlil qilinadi. Soliq yengilliklari va bojxona preferensiyalari orqali mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va eksport salohiyatini oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, imtiyozlarning samaradorligini baholash va ularni to'g'ri yo'naltirish muhimligi ham asoslab beriladi. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida soliq va bojxona siyosatining strategik ahamiyati yoritilgan holda, amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Soliq imtiyozlari, bojxona preferensiyalari, investitsiyalar, iqtisodiy rivojlanish, fiskal siyosat, eksport, mahalliy ishlab chiqarish.

Annotation. This article analyzes the positive economic impact of tax and customs incentives. It explores how tax relief and customs preferences support domestic production, attract investments, create new jobs, and enhance export potential. The paper also emphasizes the importance of evaluating the effectiveness of such incentives and directing them appropriately. Strategic significance of tax and customs policy in the country's economic development is discussed, along with practical recommendations.

Key words: Tax incentives, customs preferences, investment, economic development, fiscal policy, export, domestic production.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi eng muhim moliyaviy vositalaridan biri soliqlar va bojxona to'lovlari. Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarish yo'nalishlarini belgilashda mamlakatda soliq va bojxona munosabatlarining shakllanishi holati ham muhim rol o'ynaydi.

Soliqlar va bojxona to'lovlari orqali iqtisodiyotni tartiblash orqali soliq va bojxona munosabatlarini optimallashtirish yo'nalishlari respublikamizdagi mavjud murakkab iqtisodiy holatni, shuningdek ijtimoiy va siyosiy xususiyatlarni to'g'ri aks ettirgani holda, avvalo tadbirkorlarning iqtisodiy erkinligini ta'minlashga, milliy ishlab chiqarishni kengaytirishga, korxonalarining moliyaviy barqarorlikka erishishga, bozor

mexanizmining ishlashiga, xususiy mulkchilikning rivojlanishiga, tashqi savdo balansini (eksport va importni) muvofiqlashtirishga imkoniyat yaratish lozim. Chunki bular respublikamiz iqtisodiyotida korxonalar mulkchilik shaklidan kelib chiqib mavjud bo'lgan asosiy muammolar hisoblanadi.

Davlat tomonidan boshqarishning shakli sifatida soliq va bojxona siyosati orqali iqtisodiyotga ta'sir etishning iqtisodiyot rivojlanishi bosqichlari uchun xos bo'lgan yo'nalishlarini ishlab chiqish juda murakkab jarayondir. Bunda soliq va bojxona mexanizmining ta'sir doiralari to'g'ri tanlash lozim. Soliqlar va bojxona to'lovlari ishlab chiqarish faolligini rag'batlantirishi yoki aksincha cheklab turishi; shu yo'l bilan u yoki bu tarmoqning rivojlanishini ta'minlashi; mahsulot eksportini rag'batlantiruvchi, mamlakatdagi ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida proteksionizm siyosatini olib borishi, kapital jamg'arishi yoki ushlab turishiga, talab va taklifni moslashtirishga ta'sir etishi mumkin. Soliq va bojxona to'lovlari vositasida ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini pasaytirishga imkoniyat yaratish mumkin.

Soliq va bojxona tizimi strukturasi o'zgartirish orqali ham korxonalarining iste'mol va jamg'arish jarayoniga ta'sir qilish mumkin. Soliq tizimida asosiy o'rinni egallovchi foyda solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarning asosiy qismini tashkil etadi.

Soliq imtiyozi – soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Preferentsiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxonalar va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Soliq va bojxona tizimining asosiy va ajralmas qismlaridan biri imtiyozlaridir. Soliq va bojxona tizimida imtiyozlardan foydalanishning bir qator ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy sabablari mavjud bulib, ular quyidagilardir:

Birinchidan, soliq va bojxona imtiyozlarini mavjudligini asosiy sabablaridan biri bu soliq to'lovchi (yuridik va jismoniy shaxs)larning jamiyatda tutgan mavqei, ijtimoiy holati turlicha ekanligidan. Shu jihatdan barchaga bir xil tartibda (miqdorda) soliq solish ma'noga ega bo'lmaydi;

Ikkinchidan, davlat iqtisodiyotga ta'sir etib uni tartiblash vazifasini amalga oshiradiki, bunda turli xil dastaklardan foydalanadi. Bu dastaklarning asosiylaridan biri bu jamiyatdagi ba'zi muhim sohalarni yoki soliq to'lovchilarning faoliyatini


pag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari belgilanadi. Ya'ni, davlat soliq va bojxona imtiyozlari orqali iqtisodiyotni samarali va qulay boshqarish yoki tartiblash imkoniyatiga ega bo'ladi, bundan ko'rinadiki, soliq va bojxona imtiyozlari davlatni o'z funktsiya va vazifalarini yuzaga chiqaruvchi muhim dastak sifatida yuzaga chiqadi;

Uchinchidan, soliq va bojxona imtiyozlari qo'llanilishining asosiy sabablaridan yana biri bu milliy daromadni qulay, samarali va oqilona taqsimlashga erishishdan iboratdir. Ya'ni, bundan soliqlar va bojxona to'lovlari sifatida byudjetga jalb etilishi lozim bo'lgan moliyaviy resurslar imtiyoz berish tufayli byudjetga jalb etilmasdan soliq to'lovchilarning o'zlariga maqsadli ravishda qoldiriladi. Buning afzallik tomoni shundaki, soliq to'lovlarini byudjetga olish va uni yana qayta taqsimlash ishlarini osonlashtiradi va ish faoliyat turlarini pag'batlantirishga erishiladi.

Ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va bu sohalarni diversifikatsiya qilishda soliq va bojxona imtiyozlari ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek soliq va bojxona tizimi nafaqat davlat byudjetini to'ldirish, balki birinchi galda, pag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

Soliq va bojxona imtiyozlarini belgilash mezonlari






1-rasm. Soliq va bojxona imtiyozlarini belgilash mezonlari¹

1-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida soliq imtiyozlarini belgilash muayyan mezonlar asosida amalga oshirilgan. Soliq imtiyozlarini soliq to'lovchilarning investitsion mavqeyiga, ularning sotsial-ijtimoiy holatiga, respublikamizda qaysi sohani rivojlantirish ustuvorligiga, soliq to'lovchilarning importni o'rni bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish darajasiga hamda davlatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarga asoslanib belgilangandir. Soliq va bojxona imtiyozlarini mezonlarini to'g'ri obyektiv aniqlash iqtisodiyotning adolatlilik tamoyili ifodasi sifatida yuzaga chiqadi.

Yuqori texnologiyalar ishlab chiqarishga o'tishda sifatli raqobatbardosh, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishda, yangi zamonaviy texnologiya va texnologik qayta jihozlash, yuqori rentabelli zamonaviy uskunalarni o'rnatishni pag'batlantirishda Prezidentimizning tashabbusi bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga bir qator soliq va bojxona imtiyozlari va preferentsiyalar yaratildi.

Ushbu imtiyozlar evaziga tejalgan mablag'lar respublikamiz ishlab chiqaruvchilari uchun o'zining moliyaviy resurslarini oshirish, investitsiyalarni ko'paytirish, korxonada aylanma mablag'arini to'ldirish, ish haqini oshirish uchun qo'shimcha manba bo'lib xizmat qilmoqda.

¹ Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



1.2.6 – rasm Soliq imtiyozlari quyidagi normativ huquqiy hujjatlar bilan beriladi.²

Soliq va Bojxona kodekslarida, boshqa qonunlarda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlarida nazarda tutilgan boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yohud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar deb e'tirof etiladi.

Boshqacha aytganda soliq imtiyozlari - bu soliqqa oid qonunlarga muvofiq soliqqa tortish bazasiga ega bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslarni to'liq yoki qisman soliq to'lashdan ozod qilish yoki soliq to'lovchilar uchun soliq yukini yengillashtirish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.-T.: Adolat, 2023-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi. –T.: Adolat, 2023-yil
4. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi O'RQ-813-sonli Qonuni.

² Muallif tomonidan tuzildi

5. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda “Soliq va budget siyosatining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-sonli Qonuni